

SOVET ITTIFOQI INQIROZI DAVRIDA O'ZBEKISTON MILLIY UYG'ONISH HARAKATLARINING TARIXIY TAHLILI (1985–1991)

Abdusharifov Moxirbek Abduvoxit o'g'li

Millat Umidi universiteti, Xalqaro biznes va moliya fakulteti 1 kurs

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1753193>

Annotatsiya: Maqolada 1985–1991-yillarda O'zbekiston hududida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar tahlil qilinadi. Unda Sovet Ittifoqining inqirozi davrida milliy uyg'onish harakatlarining shakllanish sabablari, "Birlik" va "Erk" kabi jamoatchilik tashkilotlarining roli, "paxta ishi", Orol fojeasi, til siyosati va mustaqillik g'oyasining pishib yetilishi jarayoni ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar. Sovet Ittifoqi, milliy uyg'onish, mustaqillik, "Birlik", "Erk", paxta ishi, Orol fojeasi, davlat tili, siyosiy inqiroz, demokratiya, 1985–1991-yillar.

HISTORICAL ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S NATIONAL REVIVAL MOVEMENT DURING THE CRISIS OF THE SOVIET UNION (1985–1991)

Abdusharifov Mokhirbek Abduvokhit oglu

Millat Umidi University,

Faculty of International Business and Finance 1st year

Annotation. The article analyzes the political, social and cultural changes that occurred in Uzbekistan in 1985–1991. It covers the reasons for the formation of national revival movements during the crisis of the Soviet Union, the role of public organizations such as "Birlik" and "Erk", the "cotton affair", the Aral Sea tragedy, language policy and the process of maturation of the idea of independence on a scientific basis.

Keywords. Soviet Union, national revival, independence, "Unity", "Freedom", cotton work, Aral Sea tragedy, state language, political crisis, democracy, 1985–1991.

XX asrning so'nggi choragida, xususan 1980-yillarning o'rtalaridan boshlab, butun Sovet Ittifoqi miqyosida siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy tizimning chuqur inqirozi yuzaga keldi. Bu davr tarixda "qayta qurish", "oshkoralik" va "demokratiyalashuv" jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, ularning barchasi sobiq ittifoq hududidagi respublikalarda milliy uyg'onish harakatlariga turtki berdi. O'zbekiston ham bu jarayonlardan mustasno bo'lmadi. 1985–1991-yillar oralig'i mamlakat tarixida nafaqat siyosiy tizim o'zgarishlari, balki xalq ongida milliy o'zlikni anglash jarayoni tezlashgan davr sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi.

1980-yillarning oxiriga kelib, Sovet Ittifoqining iqtisodiy tizimi chuqur tanazzulga yuz tutgan edi. Markazdan boshqariluvchi iqtisodiy siyosat, respublikalar resurslarining markazga oqib ketishi, mahalliy tashabbuslarning bo'g'ilishi jamiyatda norozilik kayfiyatini kuchaytirdi. O'zbekistonda ham bu holat yaqqol ko'zga tashlandi: qishloq xo'jaligi, ayniqsa paxta yetishtirish siyosatining markaz tomonidan sun'iy ravishda kuchaytirilishi natijasida ekologik falokatlar — Orol dengizining qurishi, yerning sho'rlanishi, aholining sog'lig'iga salbiy ta'sirlar yuzaga keldi. Shu boisdan milliy uyg'onishning dastlabki bosqichlari aynan ekologik va ijtimoiy noroziliklar zaminida shakllandi. Shu davrda ijtimoiy-siyosiy hayotda madaniy-ma'rifiy harakatlar jonlana boshladi. Bir qancha nashrlar milliy o'zlik, til, tarix va madaniyatga oid masalalarni ochiq muhokama qila boshladi. 1989-yilda O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan "Davlat tili to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi milliy uyg'onish tarixida burilish nuqtasi bo'ldi. Bu qonun

o'zbek tilining davlat maqomini huquqiy jihatdan belgilab berdi va xalq ongida milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirdi.

1980-yillarning oxirida Markaz tomonidan uyushtirilgan "paxta ishi" deb atalgan siyosiy kompaniya o'zbek xalqining siyosiy ongini keskin o'zgartirdi. Bu kompaniya bahonasida yuzlab respublika rahbarlari, ziyolilar, hatto oddiy mehnatkashlar "korruptsiya", "rejalarga soxtalik kiritish" kabi ayblovlar bilan hibsga olindi. Bu holat markaziy hokimiyatning O'zbekistonni iqtisodiy resurs manbai sifatida ko'rish siyosatiga xalq noroziligini oshirdi. Paxta ishi O'zbekiston jamiyatida mustaqillik g'oyalarining shakllanishi uchun muhim psixologik zamin yaratdi. Bundan tashqari, Moskvadagi siyosiy doiralarning O'zbekiston haqidagi salbiy stereotiplari, OAV orqali o'zbek xalqining sha'niga nisbatan kamsituvchi materiallarning tarqatilishi ham milliy o'zlikni himoya qilish zaruriyatini kuchaytirdi. Shu davrdan boshlab "milliy tiklanish", "milliy g'urur", "mustaqil rivojlanish" kabi tushunchalar ziyolilar nutqida va matbuotda tez-tez uchray boshladi.

1980-yillarning oxirida respublika miqyosida siyosiy harakatlar paydo bo'la boshladi. Eng muhimlaridan biri bu — "Birlik" xalq harakati edi. 1988-yilda tashkil etilgan ushbu harakat o'z faoliyatini milliy madaniyatni tiklash, o'zbek tiliga davlat maqomini berish, tarixiy adolatni tiklash kabi masalalarga qaratgan edi. "Birlik" gazeta, miting va uchrashuvlar orqali xalqni milliy uyg'onish sari chorlagan. Bu harakatning yuzaga kelishi O'zbekistonda jamoatchilik tashabbusi asosida siyosiy faollik shakllanayotganidan dalolat berardi. 1989-yilda "Erk" demokratik partiyasi tashkil topdi. Ushbu partiyaning asosiy g'oyalari — siyosiy mustaqillik, iqtisodiy suverenitet, demokratiya va inson huquqlarini himoya qilish edi. "Erk" partiyasi o'z dasturida O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida tan olish zarurligini ochiq aytgan ilk siyosiy kuchlardan biri bo'ldi. Shu orqali mamlakatda demokratik fikrlash shakllana boshladi.

Milliy uyg'onish harakatlarining yana bir muhim yo'nalishi — Orol dengizi fojeasi bilan bog'liq ekologik muammolar edi. 1980-yillarda bu masala jahon jamoatchiligi e'tiboriga tushgan bo'lsa-da, respublika ichida uni ochiq muhokama qilish faqat "oshkoralik" siyosatidan so'ng imkon bo'ldi. "Orolni qutqarish" harakati, olimlar va jurnalistlarning chiqishlari ekologik muammoni milliy manfaat darajasiga ko'tardi. Shu tariqa ekologik masala ham milliy uyg'onishning ajralmas qismiga aylandi. 1990-yil 20-iyun kuni O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan "Davlat suvereniteti to'g'risida Deklaratsiya" qabul qilindi. Bu hujjat mamlakat mustaqilligini e'lon qilish sari qo'yilgan ilk huquqiy qadam edi. Shu paytdan boshlab siyosiy jarayonlar tezlashdi. 1991-yil avgustida Moskvada bo'lgan davlat to'ntarishiga urinish (GKChP voqeasi) Sovet Ittifoqining yakuniy inqiroziga sabab bo'ldi. Bu voqeadan so'ng, 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bu qaror xalq tomonidan iliq kutib olindi, chunki 1985–1991-yillar davomida shakllangan milliy ong, siyosiy faollik va jamoatchilik fikri bu tarixiy qarorni tayyorlab qo'ygandi. Milliy uyg'onish harakati o'zining tarixiy maqsadiga — mustaqillikka erishdi.

Xulosa

1985–1991-yillar oralig'idagi milliy uyg'onish jarayonlari O'zbekiston tarixining eng muhim davrlaridan biridir. Bu yillar xalq ongida mustaqillik g'oyasining pishib yetilishi, milliy iftixor va o'zlikni anglash hissining kuchayishi, siyosiy faollikning shakllanishi bilan xarakterlanadi. "Birlik" va "Erk" harakatlari, davlat tili haqidagi qonun, ekologik harakatlar, "paxta ishi"ga munosabat — bularning barchasi Sovet tizimining ideologik va siyosiy inqirozini tezlashtirgan ichki omillar bo'ldi. Shu sababdan, mazkur davrni O'zbekiston mustaqilligi tarixidagi milliy uyg'onish davri sifatida baholash mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimov I.A. *O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida*. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
3. Hasanov B. *O'zbekistonning yangi tarixi. II jild. Mustaqil O'zbekiston*. – Toshkent: Sharq, 2019.
4. Rajabov S., Xolmatov A. *Milliy uyg'onish: tarix va saboqlar*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
5. Markaziy saylov komissiyasi rasmiy ma'lumotlari. – <https://www.elections.uz>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. – <https://president.uz>
7. “Davlat tili to'g'risida”gi Qonun. – *O'zbekiston SSR Oliy Soveti Axborotnomasi*, 1989-yil.
8. Abdurahmonov Q. *XX asrda O'zbekiston: siyosiy o'zgarishlar tahlili (1985–1991)*. – Toshkent: Fan, 2004